

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SAMARQAND SHAHRINING MASJID VA MADRASALARI TARIXINING YORITILISHI

Jonuzoqov Muzaffarbek Nizomjon o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Irisqulov Olimjon Jahongirovich

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti dotsenti, PhD.

Annotatsiya:

Maqola Samarqand shahrining masjid va madrasalari tarixi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek dastlabki Samarqand shahridagi masjidlar tarixiga doir qiziqarli tarixiy ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

Kalit so'zlar: Abu Tohirxo'ja, Samariya, Samarqand, masjid, madrasa, Xazrati Xizr masjidi, Bibixonim jome' masjidi, Xoja Ahror Vali jome' masjidi, Saidazimboy Muhammadiboy o'g'li.

Samarqand deb atalmish ushbu zamin uzoq tarixga ega tamaddun beshiklaridan biri sifatida dunyo ahliga ma'lum. Bugungi kunda O'zbekistonlik va xorijlik tarixchi va olimlar tomonidan olib borilayotgan arxeologik izlanishlar mazkur hududdagi ilk shahar madaniyati, davlatchilik an'analari, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning va bu hududdagi masjidlar, madrasalar tarixi va ko'plab sohalaridagi rivojlanishning bir necha ming yillik tarixga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Islom dini dunyoga keng tarqalagan davrdan boshlab, bugungi kunga qadar musulmon masjidlar qurilishi o'zgarib bordi, va taraqqiy etdi. Bu avvalo, mahalliy sharoit, iqlim, urf-odatlar, qurilish uslublari va ashyolari misolida namoyon bo'ladi. Jumladan, Markaziy Osiyoda ilk masjidni milodiy 713-yili arab sarkardasi Qutayba ibn Muslim Buxorodagi zardushtiylar ibodatxonasi o'rniga, Samarqandda esa hozirgi "Hazrati Xizr" masjidi o'rnida qurdirgan edi. Shundan beri ushbu hududlarda masjidlar qurilishi avj ola boshladi. Qisqa davr ichida o'ziga xos, mahalliy iqlim va qurilish asosidagi o'ziga xos masjid me'morchiligi yuzaga kelib, bu XX asr boshigacha taraqqiy etdi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Qadimda ulkan saltanat va imperiyalar hukm surgan, turli davlatlar, xonliklar nomi bilan yuritilgan, Kaspiy dengizidan to Uyg'uristongacha cho'zilgan ulkan Markaziy Osiyo-Turkiston hududida asrlar davomida o'ziga xos musulmon me'morchiligining maktab va uslublari shakllangan. Xususan, O'zbekistonning masjidlar qurilishida tarixan shakllangan o'z uslubi bor va bu uslub ko'plab mintaqa maktablarga bo'linadi. Bular Buxoro-Samarqand, Xorazm, Toshkent-Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo-Surxondaryo maktablari va boshqalar. Birgina Samarqand maktabining o'zida turli davrlar va iqtisodiy sharoitlarda turlicha uslublarni ko'rish mumkin. Bu uslublarni binoning hajmida, qurilish texnologiyasida, katta-kichik elementlarida, qolaversa, o'ziga xos dizayni, bezaklari va hatto g'ishtlar o'lchamida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, masjidlar, diniy inshootlar, ko'pincha, minorasi pastroq bo'lgan. Shuningdek, ayrim binolarni inobatga olmaganda, boshqa mintaq-shaharlardan farqli o'laroq, zeb-ziynat, koshinlarga katta ahamiyat qaratilmagan, masjidlar nisbatan siporoq bo'lgan. Gumbazlar zangori koshin bilan qoplanmagan. Bino fasadi va gumbazlarida tabiiy g'ishtning o'zi qoldirilgan. Interier va ayvon qismida o'ymakor to'sin, ustunlardan keng foydalanilgan.

Markaziy Osiyo masjidlari asosan hovli va to'rtburchak yoki kvadrat shakldagi xonaqohdan iborat bo'lib, ba'zan xonaqoh o'rtasida sakkiz qirrali tayanchga ega gumbazlar bunyod etilgan. Hovli atrofida yoki xonaqohga kiraverishda ayvonlar qurilgan. Ba'zan hovli o'rtasida hovuz ham bo'lgan. Masjid oldiga, asosan, bitta minora qurilgan. Shuningdek, masjidga tutash hududda tahoratxona, boshlang'ich ta'lim beruvchi eski maktablar va boshqa yordamchi xonalar barpo etilgan.

Chingizxon bosqini va yaqin o'tmishdagi Sovet davrida masjidlar qurilishi ko'p yillar to'xtab qoldi. Mavjudlarining aksariyati mafkuraviy asosga ko'ra va boshqa turli vajlar bilan buzib tashlandi yoki boshqa maqsadlarda foydalanildi. Sovet Ittifoqi parchalangach, Markaziy Osiyo respublikalarida vijdon erkinligi tamoyillariga e'tibor kuchayib, diniy ibodatlariga qo'yilgan ta'qiq olib tashlandi. Shu tariqa dinga e'tiqod qiluvchi aholi soni orta borib, masjidlar yetishmovchiligi yuzaga keldi va yangilarini qurishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Masjidlar qurilishi boshlangach, bugunga qadar bu jarayon izchil davom etmoqda. Biroq, Sovet davridagi 70 yillik ateizm davrida masjidlar qurilishi to'xtatilgani, bu boradagi evolyutsion ketma-ketlik uzilib qolgani, mavjud qurilish uslublari deyarli yo'q bo'lib ketgani bois, yangi masjidlar bunyod etishda qator kamchiliklarni yuzaga keltirdi. Ko'pincha, hashar asosida shoshma-shosharlik bilan masjidlar qurish, hech



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qanday funksiyani bajarmaydigan, faqat dekoratsiya uchun minora va gumbazlar, tunukadan qubbalar yasash avj oldi. Natijada, hech bir qolipga to‘g‘ri kelmaydigan, milliy me‘moriy an‘analarimizdan yiroq masjidlar paydo bo‘la boshladi. Shuningdek, keyingi 30 yilda maxsus loyihaga muvofiq, qurilgan va qurilayotgan masjidlarni ham me‘morchilik maktabi an‘analariga mos deya olmaymiz. Samarqand me‘morchilik maktabi o‘z shakl-shamoyillari va uslublariga ega. Bu ayniqsa, masjid tipologiyasi va minoralarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Samarqand masjidlarining minoralari sharafasi (ayvoni) tomi, asosan, gumbazsimon qurilma bilan tugallanadi. Minoralarda asosdan yuqoriga tomon qisqarib borish uslubi deyarli qo‘llanmaydi. Minora deyarli bir xil qalinlikda quriladi va unchalik baland bo‘lmaydi. Masjid-barcha musulmonlar uchun Allohga ibodat qiladigan muqaddas joy hisoblanadi. “Masjid” so‘zi arabchadan “ibodat qiladigan joy, sajdagoh” deb tarjima qilinadi. Muqaddas Islom dini dunyo bo‘ylab eng keng tarqalayotgan din hisoblanadi. Shuning uchun ham mo‘min, musulmonlarning ibodatlarini go‘zal tarzda ado etishlari uchun masjidlar qurilishi yildan-yilga butun dunyo bo‘ylab oshib bormoqda. Jumladan bizning diyorlarimizda ham yildan-yilga go‘zal va muhtasham masjid binolari qad roslamoqda. Muqaddas islom dini bizning o‘lkalarimizga kirib kelgandan boshlab aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak VIII-asr boshlaridan boshlab masjidlar qurilishi boshlangan.[1] Masjidlar birinchi navbatda shaharlarda, keyinchalik qishloqlarda so‘ng mahallalarda barpo etila boshlagan. Ilk qurilgan masjidlar ko‘rinishlari hozirgi kundagidan bir muncha farq qiladi. Masjid nomoz xonasining qibla tomonida mehrob, undan o‘ng tarafda esa vazxonlik uchun mo‘ljallangan minbar ham doimiy ravishda masjidlarda bo‘lgan. Masjidning hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo‘lgan. Hozirgi Samarqand hududida zardushtiylik eng keng tarqalgan din hisoblangan arablar bosqiniga qadar. Ibodatxonalar qurilishi zardushtiylik dini an‘analaridan hos tarzda qurilgan. Biz aytayotgan hududga islom dini kirib kelgan. Ba‘zi bir ibodatxonalar arablar tomonidan buzib yuborildi, ba‘zilari masjidlarga aylantirildi. Shu sababdan masjidlarning tashqi va ichki ko‘rinishida zardushtiylik elementlari ham saqlanib qolgan. Qadimda masjidlar tarixda aksariyat qismi to‘rtburchak tuzilishga ega bo‘lgan. Masjidlarning ust qismi qalin g‘ishtan ustunlarga o‘rnatilgan ravoqlar yordamida gumbazlar bilan yopilgan. Masjidlarning soni to‘rt, olti va undan ortiq bo‘lgan. Aksariyat holda ustunlar oralig‘idagi gumbaz qolganlaridan esa balandroq holda qurilgan[2].



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bibixonim, Tillakori madrasa masjidlari xalq san'ati ilhomining va taqlidining asosiy manbai sanalgan me'morlar tomonidan bunyod etilgan. Me'morlarning jamoaviy mehnati O'rta Sharqning eng oliy yutuqlarini o'sha davr qurilish amaliyotining Markaziy Osiyoda o'zaniga yiqqan yangi me'moriy uslubni yaratdi[3].

Ana shunday hashamatli binolar o'tmishda qay usulda, qay tartibda qurilgan, uylarning loyihalari bo'lganmi, ustalari kimlar bo'lgan, degan savol tug'iladi. Bunday binolarni qurishda qatnashgan usta va me'morlar geometriya va matematika ilmlarini yuksak darajada egallagan bo'lganlar. Me'morlar qurilmoqchi bo'lgan imoratlar loyihasini va hatto maketini ham tuza bilgan. Qadimiy me'morchilik yodgorliklarida, gumbaz, aylanma zina (vintsimon konoid), peshtoq, ravoq, muqarnas (stalaktitlar) va boshqa sirtlar mavjud bo'lib, binokorlik tarixida ko'plab uchraydigan bunday murakkab qurilmalarni bunyod qilish matematik hisobni, geometrik aniqlikni talab etadi. Gumbaz, aylanma zina va konoidlar me'morchilikda egri sirtlar deb yuritiladi. Ma'lumki, egri sirtlar arxitektura va qurilish ishlarida aylanma zinalarini yasashda, konoidlar bo'lsa eshik va deraza ustki qismlarini yopishda, silindrik minoralar darchalarini hosil qilishda keng qo'llaniladi. Odatda, sirtlar chiziqlarning ma'lum bir geometrik qonuni asosida harakat qilishi natijasida hosil bo'ladi. O'z harakati bilan sirt hosil qiluvchi chiziqqa esa yasovchi chiziq deyiladi. Egri sirtlar yasovchilarning turlariga qarab, chiziqli (to'g'ri chiziqli) va chiziqsiz sirtlarga bo'linadi. Chiziqli sirtlar, o'z navbatida, yoyiladigan va yoyilmaydigan sirtlardan iborat. Yoyiladigan sirtlar konus, silindr va qaytish qirrasini bo'lgan sirtlardir. Yoyilmaydigan chiziqli sirtlar esa to'g'ri chiziqli yoyiladigan yo'naltiruvchi ikki chiziq bo'yicha birorta tekislikka doimo parallelligini saqlagan holda harakat qilishidan hosil bo'ladigan sirtlardir. Shu bilan birga yana qiyshiq sirtlar ham uchraydi. Ular silindroit, konoid, qiyshiq tekislik yoki giperbolik, paraboloid va vint sirtlardan iborat.

G'iyosiddin Jamshid al-Koshiyning "Arifmetika kaliti" asarida Samarqand masjidlari tarixi emas balki, ularni qurilish va bezak berish masalalari keltirib o'tilgan. Ushbu kitobning 9 bobi Bino va inshootlarning o'lchami haqida", "risolasining me'morchilikka bag'ishlangan ushbu bobi nafaqat riyoziyot fanining tarixi uchun, balki me'morchilik va grafikaviy fanlar uchun ham katta ahamiyatga ega[4]. Ushbu bobda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari me'morchiligini keng tarqalgan arkalar, gumbazlar va boshqa me'morchilik shakllarning elementlari



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

haqida soʻz yuritilgan. Ushbu bobda olim arka va gumbazlar tuzilishini oldingi olimlar aytganiga nisbatan oʻzgartirdi, Al-Koshiydan oldingi olimlar gumbaz shaklini boʻsh yarim silindir shakliga oʻxshatib, tasvirini faqat bitta radiusiga ega boʻlgan yoy deb hisoblaganlar. Al Koshiydan esa arka va gumbazlar shaklini va ularning geometrik yasashlarini silindr proyeksiyasi shaklida emas, balki yoylar va chiziqlar oʻzaro tutashgan holatini koʻrsatgan. Samarqand arxitektura yodgorliklari oʻzlarining silindrik barabanlariga tayanib, muqarnaslar (stalaktitlar) bilan bezatilgan baland sferik qubbalar, arxitektura formalarining kattaligi, oʻlchamlarining ulkanligi bilan ajralib turadi. Bibixonim masjidining gumbazi ana shunday qurilish ishlarining namunasi hisoblanadi. Gumbaz asosini tashkil qilgan silindrik barabanning diametri 18 metr ga teng. Gumbaz qoldigʻi bilan hozirgi vaqtdagi yer sathi oraligʻi 36,65 metrdir[5]. Bibixonim masjidi haqida manbaʼlarda shunday yozib qoldirilgan. “Uning gumbazi, agar osmon gumbazi boʻlmaganda yakkayu yagona boʻlur edi, arki ham agar Somon yoʻli boʻlmaganda yakkayu yagona boʻlib qolardi”.

Samarqanddagi Shohi Zinda, Hazrati Xizr masjidi, Sherdor madrasasi hamda Tillakori madrasasining guldastalarida ham koʻplab gumbazlar ishlatilgan. Goʻri Amir maqbarasidagi silindrik baraban ustida ulugʻvor sferokonus shaklidagi gumbaz boʻlib, u boshqa gumbazlardan anchagina farq qiladi. XIV-XV-asrlarda binokorlikda ikki qavatli (ichki va tashqi) qubbalar yasala boshlagan. Bular Shirinbeka oqa, Tuman oqa, Goʻri Amir va boshqa maqbara va madrasalarda uchraydi.

Gʻiyosiddin Koshiyning “Miftoh al-hissob fil-hissob” kitobi hisoblash usullari, tekis geometrik shakllarning turlari va ularning yuzasini, fazoviy 60 geometrik jismlarning turlari va ularning hajmini aniqlashga bagʻishlangan. Risolaning mazmunini tushuntirib berish uchun, olim chizmalar va geometrik yasashlarni bajarib koʻrsatgan. Yuqorida zikr qilingan risolasi 5 ta kitobdan iborat boʻlib, toʻrtinchi kitob oʻlchash usullariga bagʻishlangan. Ushbu kitobning 1-5 boblarida tekis geometrik shakllar haqida tushunchalar, yuzani aniqlash va chizmalar berilgan. 6-7 boblarida fazoviy geometrik jismlar haqida tushunchalar, ularning hajmini aniqlash haqida soʻz yuritilgan.

Masjidlar toʻgʻrisidagi manbalar aslida vaqfnomalarga ham toʻxtalib oʻtishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. A.L.Kun Samarqand guzarlarida joylashgan masjid, madrasa kabi diniy-madaniy muassasalarning vaqfnomalarini toʻplab,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni rus tilida qayd etib boradi. Jumladan, vaqf ta'sis etuvchining ismi, vaqf mulklarining turlari va nechanchi yilda vaqf qilingani, ushbu mulklardan keladigan foyda taqsimoti, muhrlar singari ma'lumotlarni keltiradi.

Masjidlarning asosiy ta'minoti vaqf yerlaridan amalga oshirilgan. Shu boisdan, vaqf madrasa, masjid, mozar, qorixona kabi muassasalar foydasiga belgilangan turli ko'rinishdagi mol-mulk bo'lib, uning rasmiy-huquqiy hujjati vaqfnoma deb atalgan. Vaqfnomalar qozixonalarda vaqf qiluvchi–voqif, qozi, a'lam, muftiy va xolis guvohlar ishtirokida tuzilib, muhrlangan. Vaqfnomalar, ma'lum vaqt o'tgach, sharoit taqozosiga kura, (vaqfnomaning yo'qolishi, yaroqsiz holga kelishi va boshqa sabablar bilan) yangilanib turilgan. Bir masjidga turli vaqtlarda turli kishilar tarafidan ham mulklar ajratilgan va ular uchun alohida vaqfnomalar tuzilgan[6]. Vaqfning bir ko'rinishida vaqf qilingan mol-mulk vaqf qiluvchi, ya'ni vaqfning qo'lidan butunlay chiqib ketgan, ikkinchi ko'rinishi esa voqfga vaqf qilinayotgan mulkdan kelayotgan daromadning bir qismini o'ziga olish imkonini bergan. Vaqf xo'jaligi ishlarini yurituvchi shaxs – mutavallini belgilash va vaqf daromadini taqsimlash vaqfning ixtiyorida bo'lgan.

Arxiv hujjatlarida qayd qilinishicha, 1884-yilgi qaydnomalarda Toshkent shahri va Samarqandda ro'yxatga olingan vaqfli masjidlar 125ta bo'lgan. Biz o'rganayotgan davirdagi aksariyat masjidlarda imom, muazzin, mutavalli, yirik masjidlarda esa farrosh, sartarosh va qorovul xizmat qilgan. Ular masjidning vaqf mulkidan belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlangan. Masjidning vaqflari avvalo masjid quruvchisi, qolaversa, hokimlar va o'ziga to'q kishilar tomonidan ajratilgan. Katta mol-mulkka ega bo'lmagan o'rtahol kishilar ham kichikroq mablag' evaziga do'konga ega bo'lib, biror bir masjidga vaqf qila olgan.

Masjid vaqflarini, asosan, shahardagi savdo va hunarmandchilik do'konlari hamda yerlar tashkil qilgan. Bozorlardan tashqari, masjidga tutash yerda va masjid hovlilarida ham vaqf sifatida do'konlar ishga tushirilgan va ularda so'fi (muazzin) yoki mutavalli savdo qilgan. Bundan tashqari, karvonsaroylar, tegirmonlar, objuvozlar, ekinzorlar, bog'lar, daraxtzorlar, hovlilar va pul mablag'lari ham egalari tomonidan belgilangan shartlar asosida vaqf qilingan.

Shaharning markaziy masjidlaridan hisoblangan "Hoja Ahror" jome' masjidi esa 1884-yilda masjid atrofi va bozor ichida 102 ta do'kondan yiliga 120 so'm, masjid yaqinidagi Solihbek dodxoh avlodlariga qarashli bir saroydan yiliga 120 so'm, jami



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

240 so'm vaqf daromadi hisobiga faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Quyi Degrez mahallasidagi Saidazimboy Muhammadiboy o'g'li o'zi qurdirgan masjidiga boshqa bir saroyi daromadidan masjidga yilda 25 tilla vaqf qilgan. Shundan kundalik imom 10 tilla, juma namozi imomi 5 tilla, muazzin 5 tilla, qolgan 5 tilla masjid ehtiyojiga sarflangan.

Bu albatta masjidlarning barqaror ishlab turishi, ular qoshida faoliyat yuritgan madrasa, qiroatxonalar mudarris va talabalarining ta'minoti, qolaversa, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga yordam ko'rsatib turish uchun shariatning mukammal va savobi ulug' tizimidir. Boshqa jihatdan esa, ilm ahliga, Qur'on ahliga homiylikdir. Toki ilm talab qilguvchi, Allohning baytini xizmatini qiluvchi kishilar turmushida muhtojlik sezib, boshqa ishlarga chalg'imasin. Ming yillardan beri qo'llanilib kelingan mazkur tajribaning qanchalik samarali natija bergani tarixdan ma'lum. Dunyo ilm-fani tamadduniga munosib hissa qo'shgan ulug' siymolar, mo'tabar allomalarimiz boshlang'ich (asosan hal qiluvchi) bilimlarini ana shunday vaqf mulklari evaziga faoliyat ko'rsatgan masjid va madrasalarda olganlar.

Shaharlar markazi yoki katta yo'l bo'ylarida joylashgan masjidlar o'z-o'zini ta'minlay olar, biroq, chekka hududlardagi masjidlarga nisbatan bu fikrni ayta olmaymiz. "O'z aravasini torta olmaydi". Homiylik mablag'lariga qarab qolingan. Bizda masjidlarni rasmiy homiylik yoki otaliqqa olgan davlat yoki xususiy tartibdagi tashkilot yo'q. Chunki bizda qonunchilikka ko'ra din davlatdan ajratilgan va davlat diniy tashkilotlarni moliyalashtirmaydi[7]. Yaqinda deputatlardan birining aholisining 90% foizidan ortig'i islom diniga e'tiqod qiluvchi davlatimizda islom dini an'analariga bog'liq ba'zi me'yorlarni qonunchilikka kiritish jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda foyda bo'lishini aytgan gaplari e'tiborga molik.

Bizda masjid xodimlari juda kam oylikka ishlashadi. Ba'zilar ish haqqi olishmaydi. To'g'ri, Alloh uchun holis xizmat qilishni ixtiyor etishar, lekin masjid xizmati uchun haq olish shariatda bor va bu Hazrati Usmon roziyallohu anhuning xalifalik davrlaridan buyon davom etib keladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Шарафиддин али Яздийнинг "Зафарнома" Тошкент 1997 Бет 221
2. Камалов А. Геометрия Нашей Древнейшей Архитектуры – Тошкент, 1973. – Б.142.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Камалов А. Геометрия Нашей Древнейшей Архитектуры – Тошкент, 1973. – Б.138
4. Жамшид Гиясиддин Ал-Коши “Ключ арифметики. Трактат об окружности”. Перевод с арабского Б.А.Розенфельда, Гос.изд-во технико-теоретической литературы. – Москва 1956. – С.142.
5. Л.Ю.Манковская, Бибахоним – Ташкент, 1963. – С.15.
6. Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпел, Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана – Тошкент, 1958. – С.121
7. Абу Тохирхўжанинг “Самария” Тошкент Камалак 1991 йил Бет 23.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

